



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“O‘ZBEK TILINING MILLIY KORPUSI:
MUAMMO VA VAZIFALAR”**

**mavzusidagi
xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
materiallari
(2022-yil 31-may)**



O‘zbek tilining milliy korpusi: muammo va vazifalar / Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. Elektron nashr / ebook. – Toshkent: ToshDO‘TAU, 31.05.2022. – 356 b.

Mazkur to‘plamdan korpus lingvistikasi sohasiga doir tadqiqot natijalari, filologik dasturiy ta‘minotlar, ularning imkoniyatlari va afzalliklari, tabiiy tilni qayta ishlashga oid masalalar, semantik tizim bazalari, til va adabiy korpuslar, lingvistik ta‘minot manbalari, mashina tarjimasida lingvistik muammolar, lingvodidaktik dasturlar va platformalar, terminologik lug‘atlarni yaratish masalalariga oid materiallar joy olgan.

Ushbu ilmiy to‘plamdan korpus lingvistikasi sohasi vakillari, tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlar va kelajak sohalariga qiziquvchi talabalar foydalanishlari mumkin.

Mas’ul muharrir:

B.Mengliyev – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Amaliy filologiya kafedrasini mudiri, filologiya fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

Sh.Shaxobitdinova – Andijon davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori.

Sh.Hamroyeva – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Amaliy filologiya kafedrasini dotsenti v.b., filologiya fanlari doktori.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**
**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILINING MILLIY KORPUSI: MUAMMO VA
VAZIFALAR**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konfrensiya
materiallari

2022-yil 31-may

Toshkent – 2022



TASHKILY QO‘MITA

Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti)

Hamroyev G‘ofir Hasanovich (O‘zR Vazirlar Mahkamasining Ma’naviyat va davlat tili masalalarini rivojlantirish departamenti)

Jamoliddinova Odinaxon Rustamovna (O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi)

Eshref Adali (Turkiya, Istanbul texnika universiteti)

Muratbek Bagila Kurmanbekkizi (Qozog‘iston, K.Jubanov nomidagi Aqto‘be viloyat universiteti)

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti)

Raupova Laylo Raximovna (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti)

Elov Botir Boltayevich (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti)

Jo‘raqo‘ziyev Nodir Imomqo‘ziyevich (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti)

Xamroyeva Shahlo Mirdjonovna (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti)

TAHRIR HAY‘ATI

Eshref Adali

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich

Raupova Laylo Raximovna

Elov Botir Boltayevich

Xamroyeva Shahlo Mirdjonovna



ZAMONLAR ANNOTATSIYASIDA GRAMMATIK SHAKLLARNING AHAMIYATI

THE IMPORTANCE OF GRAMMATICAL FORMS IN THE ANNOTATION OF TENSE

Xonnazarov Elyor G'ofurovich*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tili korpusida zamoni annotatsiyalashda grammatik shakllarning roli, shuningdek, zamon shakllarining o'zbek tili shevalaridagi variantlari haqida ma'lumot beriladi.

Annotation. This article provides information about role of grammatic forms in the annotation of tense in the Uzbek language corpus, as well as the variants of tense forms in the Uzbek language dialects.

Kalit so'zlar: korpus, zamon shakllari, mayl shakllari, annotatsiyalash, kontekst, o'tgan zamon, hozirgi zamon, kelasi zamon.

Keywords: corps, tense forms, mood forms, annotation, context, past tense, present tense, future tense.

Kirish

Matn tarkibidagi gaplarning zamonini belgilashda bir qator grammatik vositalar ta'sirini hisobga olish zarur. Zamon ma'nosini voqelantirishda bu grammatik vositalarning ahamiyati turli darajada bo'lib, bunda, avvalo, zamoni ifodalovchi grammatik shakllar markaziy o'rinni egallaydi. Gap tarkibida zamoni ifodalovchi maxsus grammatik shakl bo'lmagan holatlarda mayl shakllari o'zining zamon ma'nosini ham sinkretik ifodalash xususiyati bilan keyingi o'rinni qayd etadi. Shuningdek, yana bir qator grammatik vositalar borki, ular bevosita zamon ma'nosini voqelantira olmasa-da, gap tarkibida zamon shakllari mohiyatan anglatadigan grammatik ma'nosiga o'zgartirish kirita oladi. Bu ta'sir bir zamon tarkibida ichki turini o'zgartirish yoki bir zamondan boshqa zamonga o'tkazish ko'rinishida bo'lishi mumkin.

Matndan zamoni aniqlash uch xil darajada amalga oshiriladi:

1. Grammatik daraja. Bunda matn tarkibidagi zamonga ishora qiluvchi grammatik shaklning lisoniy ma'nosi asosida xulosa chiqariladi.

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
xonnazarov90@mail.ru



2. Semantik daraja. Bunda grammatik shakl qo‘shilayotgan asosning leksik ma’nosidagi zamoni ifodalashdagi o‘ziga xosliklari inobatga olinadi.

3. Kontekstual daraja. Eng murakkab daraja bo‘lib, grammatik shaklning qaysi zamoni anglatayotgani haqida nutqiy qurshovdan kelib chiqib xulosa chiqariladi.

Korpus tarkibidagi gaplarni zamoni ifodalashiga ko‘ra annotatsiyalashda ularning ikki turi farqlanadi:

- 1) tarkibida maxsus zamoni ifodalovchi grammatik shakl mavjud gaplar;
- 2) tarkibida maxsus zamoni ifodalovchi grammatik shakl mavjud bo‘lmagan gaplar.

Birinchi turda zamoni annotatsiyalash jarayonida gapning zamoni haqida xulosa kesim tarkibidagi zamon ko‘rsatkichi va uning mohiyatan anglatadigan zamon ma’nosi asosida chiqariladi.

Kesim tarkibida *-di, -b (-ib), edi, -gan (-kan, -qan), -gan edi (-kan edi, -qan edi), -b edi (-ib edi), -r edi (-ar edi), -yotgan edi (-ayotgan edi), -yotib edi (-ayotib edi), -yotir edi (-ayotir edi), -moqda edi, -ydigan edi (-adigan edi), -guvchi edi, -moqchi edi* kabi grammatik shakllar o‘tgan zamon sifatida teglanadi.

-a (-y), -yap, -yotib (-ayotib), -yotir (-ayotir), -moqda, -yotgan shakllari, shuningdek, *yurmoq, turmoq, o‘tirmoq, yotmoq* fe’llarining ko‘makchi fe’l va holat fe’li sifatida qo‘llanilishi hozirgi zamon sifatida annotatsiyalanishi kerak.

-a (-y), -r (-ar), -moqchi, -ydigan (-adigan), -ajak (-yajak), -gay (-kay, -qay), harakat nomi+shaxs-son+kerak/lozim/shart/darkor/mumkin, -gan bo‘l+a+shaxs-son (-kan bo‘l+a+shaxs-son, -qan bo‘l+a+shaxs-son), -yotgan (-ayotgan)+bo‘l+a+shaxs-son kabi grammatik shakllar kelasi zamon sifatida annotatsiyalanadi.

Keltirilgan shakllarning o‘zi mansub bo‘lgan zamon doirasida turli ma’no qirralarini voqelantirishi tahlilning grammatik darajasi sifatida, o‘zi mansub bo‘lgan zamon doirasidan tashqarida yana boshqa zamoni anglatish holatlari kontekstual daraja sifatida baholanadi.

Yuqorida keltirilgan grammatik shakllarning annotatsiyasi hozirgi o‘zbek tili bo‘yicha tuziladigan korpuslar uchun umumiy xarakterda bo‘lib, faqat o‘zbek tili shevalarida ayrim grammatik shakllar adabiy tildagidan farqli ko‘rinishlarga ega. Kelajakda tuziladigan o‘zbek tili shevalari korpusi matnlaridagi zamon shakllarining annotatsiyasi ularning shevalardagi variantlari asosida amalga oshiriladi. O‘zbek tili shevalari yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarga [Решетов, 1978:151; Ashirboyev, 2013:25; Игамбердиева, 1970:137; Usmonov, 2005:138] tayanilgan holda zamoni ifodalovchi grammatik shakllarning quyidagi 2-jadvalda keltirilgan variantlari yig‘ildi.

Zamoni ifodalovchi grammatik shakllarning o‘zbek tili shevalaridagi variantlari



2-jadval

O'tgan zamon shakllari		
	Adabiy tildagi shakli	Shevalardagi variantlari
.1	-di	-di, -ti, -du, -tu, -tъ, -dъ, -ты, -ды, -lъ
.2	-(i)b	-ip, -p, -ъp, -ъp, -ыр
.3	edi (ot kesim tarkibida)	ъdъ, әdъ, -dъ, -du, -yudъ, -ъyudъ.
.4	-gan (-kan, -qan)	-gan, -kan, -qan, -g'an, -gән, - kән, -qән, -g'ән, -g'on, -kon, -qon, -ә:n, -yән
.5	-gan edi (-kan edi, -qan edi,-gandi, -kandi, -qandi)	-ganъdъ,-qanъdъ, -kanъdъ, - g'anъdъ, -gәнәdъ, -qәнәdъ, -kәнәdъ, -g'әнәdъ
.6	-(i)b edi	-ъvъ:dъ, -ъvъ:du, -u:dъ, u:du, - ыvedъ, -ыvәdъ, -uvdъ
.7	-(a)r edi	-arъdъ, -arәdъ, -әydъ, d-u:гъ:dъ, -g'ъchъ:dъ, -g'uchъ:dъ, -qъchъ:dъ, -kъchъ:dъ, -gъchъ:yudъ, -әychъ:yudъ, -ychъ:yudъ, -әddъ, -әddu
	-mas edi	-masыudъ, -mastы, -mәychъ:yudъ
.8	-(a)yotgan edi (- (a)yotgandi)	-yәtkәнъdъ, -yәtkәнъdъ, - yәkkәнъdъ, -vәtkәнъdъ, -utkәнъdъ, -utkәndъ
.9	-(a)yotib edi	-tъ:vъ:dъ:, yо:tъ:vъ:dъ:, -yәtuvdъ, -tuvdъ
.10	-(a)yotir edi	-yәtъrъdъ, -jatыrъdъ, -vatъrdъ
.11	-guvchi edi	-gъchъyudъ, -kъchъyudъ, - qъchъyudъ, -g'ъchъyudъ, g'uchъ:dъ
.12	-moqchi edi	-moqchъ:yъ:dъ, -moxchъyudъ, -moqchъdъ, -moxchъdъ
.13	-ydigan edi (-adigan edi)	-dugәнъdъ, -dugәнъdъ, -dug'on ъdъ, -dъgәнъdъ, -dugәndъ



Hozirgi zamon shakllari		
.	Adabiy tildagi shakli	Shevalardagi variantlari
.1	-a	-ə, -o
.2	-yap	-yəp,-vət,-vət, -uttъ, -yop, -yat, - əp, -yop, -ayt, -əyt
.3	-(a)yotib	- yətъp, -djatъp, -vatъp, -ъvatъp
.4	-(a)yotir	-vatыp, -yatыp, -jatыp, -yətыp
.5	-(a)yotgan	-vətkən, -utkən, -yətkən, -yətkən, -yəkkən
.6	yurib	yurъp, yurъm (man, miz), yurup, yurum, juru, jur, juri, durъp, yur, djurip
.7	turib	turъp, turup, turip, turъm, turum, turub,turъb, turu, turъ.
.8	o‘tirib	o‘tъp, o‘tъm, o‘ttъp, o‘ltъp, uttъp, otъp, votыгыp, əтыгырыты, oтыгу, oтыp, otur, otъp
.9	yotib	yəтыp, yəтым(man,miz), yətъp, yətъm, djatыp, djatp, djatъp, djə:p, vatъp
Kelasi zamon shakllari		
.	Adabiy tildagshakli	Shevalardagi variantlari
.1	-a	-ə, -o
.2	-(a)r	-ər, -əp
.3	-moqchi	-maqчы, -məkchъ, -məxchъ, - mə:chъ
.4	-adigan, -ydigan	-digən, -tigən, -dyg‘an, -tyg‘an
.5	-(y)ajak	-jaq, -əjaq, -chaq



Tarkibida zamonni ifodalovchi maxsus grammatik shakl mavjud bo‘lmagan gaplarda ham zamon ma’nosi ifodalanadi. Chunki kesimlik kategoriyasi sanalgan zamon har qanday gapda aks etadi. Bunday gaplarning quyidagi turlarini ajratish mumkin:

- a) mayl shakllari mayl va zamon ma’nosini sinkretik ifodalagan gaplar;
- b) nol shakl orqali zamon ma’nosi ifodalangan gaplar.

Mayl shakllari mohiyatida modallik ma’nosi yetakchilik qilsa-da, ular bir paytning o‘zida muayyan zamon ma’nosini ham reallashtiradi. Xabar maylining bevosita kuzatganlik, bevosita kuzatmaganlik, ishonch, gumon kabi modal ma’nolari biz yuqorida ko‘rgan zamon grammatik shakllari orqali ifodalanadi. Bu mayl maxsus grammatik ko‘rsatkichga ega emas. Qayd etish joizki, bir qator manbalarda o‘tgan, hozirgi va kelasi zamonni ifodalovchi grammatik shakllar aynan xabar maylining tarkibida o‘rganiladi [Зикриллаев, 2018:115]. Biroq N.Musulmonova fikrlariga ko‘ra [Мусулмонова, 2007:112], bu shakllarda zamonning kategorial ma’no, maylning yondosh ma’no mavqeyida ekanligidan kelib chiqilsa, zamon shakllari qo‘shimcha tarzda xabar maylining modal ma’nolarini voqelantirishi haqida xulosa chiqarish to‘g‘riroq bo‘ladi.

Buyruq-istak maylining shakllarida *buyruq*, *istak* kabi modal ma’nolar birlamchi bo‘lsa-da, ular qo‘shimcha tarzda zamon ma’nosini ham ifodalaydi. Umuman olganda, buyruq va istak ma’nolarida so‘zlovchining kelajakda (nutq momentidan keyingi vaqtda) o‘zi nimadir qilishni xohlashi yoki boshqa shaxsning muayyan ish-harakatni bajarishini istashi, uni bajarishga undashi aks etgani bu maylning kelasi zamonni anglatishini ko‘rsatadi.

-(a)y(in) va *-(a)ylik* shakllari birinchi shaxsda so‘zlovchi fe’l asosidagi harakat-holatni kelasi zamonda – nutq momentidan keyin amalga oshirmoqchi bo‘ladi. Masalan: – *Xudo saqlasin. Mayli, zarari yo‘q, xudo suygan quliga dard beradir. Qani keling, bir **dam solib qo‘yay** (A.Qahhor). – Yo‘lda ko‘rdim. Ertaga aniqlik kelishadi. Endi hovliga **boraylik** (A.Qahhor).*

Ikkinchi shaxs birlikda buyruq-istak maylida maxsus grammatik shaklsiz fe’l asosining o‘zi orqali (shuningdek, unga bo‘lishsizlik qo‘shimchasini qo‘shish orqali) kelasi zamon ma’nosi ifodalanadi. Masalan: *Birinchi: hozir nazorat ostida bo‘lgan g‘o‘zalarni tekshirib, bularning asosiy shoxi qachon zararlanganini **belgila** (A.Qahhor).* Ta’kid ma’nosida ba’zan *-gin* shaklidan foydalaniladi. Masalan: *O‘zbekiston xalq artisti Shukur Burxonov “rolni chertib-chertib tanlab, undan xarakter topa bilsanggina **o‘ynagin**. Yo‘qsa xalqning me’dasiga tegib, nazaridan qolasan”, derdi. Hurmat ma’nosida fe’l asosiga *-(i)ng* shakli, ikkinchi shaxs ko‘plikda *-(i)ng(lar)*, *-ingiz(lar)* shakllari qo‘shilganda ham kelasi zamon ma’nosi anglashiladi. Masalan: “Agar siz Venesuelaga bostirib kirish kerak deb hisoblayotgan bo‘lsangiz, unda miltig‘ingizni **tayyorlang**. Biz sizni kutib qolamiz”, – deb aytgan Maduro (kun.uz). “Sizlarga vasiyat qilaman. Maorif*



yo'linda ishlayturg'on muallimlarning **boshini silangizlar. Maorifg'a yordam etingiz**” (Behbudiy).

Buyruq-istak maylida 3-shaxsga nisbatan qo'llaniluvchi *-sin* shakli ham kelasi zamonga ishora qiladi. M: *Bir jom suv bergin, bizdan suvday sovib ketsin, umidini uzib ketsin* (“Alpomish” dostonidan).

Buyruq-istak mayli shakllari ba'zan *edi* to'liqsiz fe'li bilan qo'llanilib, o'tgan zamon ma'nosini anglatadi. Masalan: *Gunohi bo'lsa avtsin edi...* (darvo.uz) *O'sha paytda norizo bo'lsang, kelib, og'avni, berolmayapsan bilimni, deb o'sha pavt to'xtatgin edi* (daryo.uz).

-sa shart mayli shakli *shart, payt va istak* ma'nolarini voqelantirish barobarida kelasi, hozirgi, ba'zan o'tgan zamonga ishora qiladi. Ushbu shaklning qaysi zamoni anglatishi gap tarkibida bajarayotgan vazifasi va ifodalayotgan ma'nosiga uzviy bog'liq. Gap tarkibida bajarayotgan vazifasi deganda *-sa* qo'shimchasining ergashgan qo'shma gapning ergash gap qismida qismlarni bog'lovchi vosita sifatida ishtirok etishi, sodda gap tarkibida kesim vazifasini bajarishi kabi vazifalari tushuniladi. *-sa* ergashgan qo'shma gap qismlarini bog'laganda ergash gap tarkibida nomustaqil kesim vazifasini bajaradi. Bu holatda shart ma'nosini ifodalaganda fe'l asosidan bosh gap kesimidagi harakat-holatning yuzaga chiqishi uchun kelajakda shart qilinadigan yoki umuman shart qilingan harakat-holat anglashiladi. Masalan: “*Zakot qilinglar, bersa, zakotini olib kelinglar*”, *deb yuborgan*”, – *dedi*. (“Alpomish” dostonidan). *Agar mehmon mezbon oilasida biron janjal bo'layotgani ustidan chiqsa, bundan ham yomon, o'ng'aysiz holatda qoladi* (A.Qahhor). Birinchi misolda *-sa* shakli kelasi zamoni, ikkinchi misolda esa umumiy hozirgi zamon ma'nosini ifodalagan. Vaqt jihatdan *-sa* shakli qo'shilgan fe'l asosidagi harakat-holat birinchi, mustaqil kesim asosidagi harakat-holat undan so'ng amalga oshadi. Birinchi misoldagi mustaqil kesim *olib kelinglar* ning kelasi zamonda ekanligi *bersa* ning ham kelasi zamoni anglatishiga sabab bo'lgan. Ikkinchi misolda *qoladi* fe'lining umumiy hozirgi zamoni ifodalashi *chiqsa* ning ham hozirgi zamonda bo'lishiga ta'sir etgan.

-sa shakli nomustaqil kesim tarkibida *payt* ma'nosini anglatganda ko'pincha o'tgan zamonga ishora qiladi. Masalan: *Dutor chalib o'tirsam, tori uzilib ketdi*. (Qo'shiqdan). Ba'zan shart ma'nosi bilan ham o'tgan zamon ma'nosi anglashiladi. Masalan: *Boshingga tashvish tushmasa, qaytib kelmasding* (Said Ahmad).

Yuqoridagi misollardan ko'rinadiki, nomustaqil kesim tarkibidagi *-sa* shaklining zamoni mustaqil kesim zamoniga uzviy bog'liq bo'ladi va shundan kelib chiqib aniqlanadi.

-sa shakli mustaqil kesim tarkibida qo'llanganda istak ma'nosi bilan kelasi zamoni ifodalaydi. Masalan: *Qani endi bu qaqragan cho'l aro bir zilol suvli quduqqa duch kelsam-u undan qonib-qonib ichib tashnaligimni qondirsam*



(Ulug‘bek Hamdam). Bu holatda kelasi zamondagi istakning ifodalanishiga *qani edi, qani endi, zora, koshki edi* kabi kirish so‘zlar ham ta‘sir ko‘rsatadi.

-sa shakli istak ma‘nosi bilan hozirgi zamonni ham ifodalashi mumkin. Hozirgi zamon ma‘nosi ko‘pincha *hozir, ayni vaqtda, shu tobda, shu onda* kabi payt ravishlari ta‘sirida voqelanadi: *Qani endi Lutfiniso shu tobda yonida bo‘lsa* (O.Yoqubov). Shuningdek, *turmoq, yurmoq, o‘tirmoq, yotmoq* fe‘llari -sa shaklini olib, *ajablanish* mazmuni bilan hozirgi zamon ma‘nosini ifodalaydi. Masalan: *Qanday ota ekan, shunday bolasidan kechib, o‘z halovatini o‘ylab yursa...* (xs.uz).

-sa edi (-saydi) shakli kontekstga bog‘liq holatda har uchala zamonda kela oladi. *Edi* to‘liqsiz fe‘li -sa shakliga o‘tgan zamonlik xususiyatini yuklasa-da, biroq istak mazmuni ta‘sirida asosan kelasi zamon ma‘nosini voqelantiradi. Masalan: *Ertaga fermerning boshiga ham shu kunlar kelmasa edi* (kun.uz). Bu shakl o‘tgan zamonda shart ma‘nosini ifodalaydi va ko‘pincha qo‘shma gap tarkibida nomustaqil kesim vazifasini bajaradi. Qo‘shma gapning ikkinchi kesimi – mustaqil kesimning o‘tgan zamonda ekanligi nomustaqil kesimning zamonini ham moslashtiradi. Masalan: *Agar bularni otasi o‘qutsa edi, bu jinoyat va padarkushlik alardan sodir bo‘lmas edi...* (Behbudiy). -sa edi (-saydi) shakli kontekstda hozirgi zamonga ishora qiluvchi vositalar ta‘sirida, shuningdek, fe‘lning leksik ma‘nosi ta‘sirida hozirgi zamon ma‘nosini ham ifodalashi mumkin. Masalan: *Shunga ham rahmat, lekin o‘sha rus tahlilchisi qani endi biz bilganimizcha bilsa edi.*

-(a)yotsa shakli davomli o‘tgan zamon ma‘nosini anglatadi. -(a)yotsa ergash gapda nomustaqil kesim tarkibida keladi va bosh gapdagi mustaqil kesimning qaysi zamonda ekanligidan qat‘i nazar, davomli o‘tgan zamonni anglatib turadi. Masalan: *Seshanba kuni ertalab shoshib ishga borayotsa, nimdosh ko‘k yaktak kiygan, chuvak yuzli, pishshiq bir chol tavoze bilan salom berdi: – E, assalomu alaykum, to‘ram!* (X.Sultonov)

-gan bo‘lsa shakli nomustaqil kesim tarkibida o‘tgan zamon ma‘nosini ifodalaydi. Masalan: *1973-yilgacha quyosh energiyasi olimlar uchungina tadqiqot obyekti bo‘lgan bo‘lsa, endi u sanoatning yangi sohasiga aylandi* (Ma‘rifat.uz). Ushbu shakl mustaqil kesim tarkibida kelganda ham o‘tgan zamon ma‘nosini anglatadi. Bunda gumon ma‘nosi ifodalanib, gap tarkibida ko‘pincha *ehtimol, ajab emas* kabi kirish so‘zlar qo‘llaniladi. Masalan: *Ko‘pchilik bu qanday jism ekanligi haqidagi savollar iskanjasida qolgan bo‘lsa ajab emas* (kun.uz).

-(a)yotgan bo‘lsa shakli nomustaqil kesim tarkibida ham, mustaqil kesim tarkibida ham davomli hozirgi zamonni anglatadi. Masalan: *Agar jamoatchilik asosida ishlayotgan bo‘lsa, ko‘chada o‘z ishini qilmaydimi?* (kun.uz) -(a)yotgan bo‘lsa mustaqil kesim tarkibida kelganda undan so‘ng kerak, ajab emas, ehtimol kabi modal so‘zlar keladi va gumon ma‘nosi anglashiladi. Masalan: *Ko‘pchilik bizda imkoniyat umuman yo‘q, deb o‘ylayotgan bo‘lsa kerak* (kun.uz).



Umuman olganda, shart mayli shaklidagi so‘z gapda nomustaqil va mustaqil kesim vazifalarida kela oladi. Har ikki holatda ham kesimlik kategoriyasi bo‘lgan zamon ma’nosiga ega bo‘ladi. Shart mayli shakli vositasida o‘tgan, hozirgi, kelasi zamon ma’nolari ifodalanishi mumkin.

Nol shakl orqali zamon ma’nosining ifodalanishi ot kesimli gaplar uchun xos bo‘lib, bunda kesim tarkibida zamonga ishora qila oladigan biror shakl qo‘llanmaydi. Kesim tarkibida bog‘lama vazifasidagi -man, -san, -dir, -miz, -siz kabi vositalar qo‘llanilishi mumkin (lekin ko‘pincha tushib qoladi). Biroq bu vositalar muayyan bir zamonga ishora qilmaydi. Bunday holatda nol shakl orqali umumiy hozirgi zamon ma’nosi ifodalanadi. Masalan: *Ahmoq do‘stdan aqlli dushman yaxshi* (Maqol). Men *haydovchiman*. Vazifamiz – *o‘qish*.

Ot kesimlarda *edi* shakli o‘tgan zamonga ishora qilsa, bog‘lama vazifasida kelgan *bo‘lmoq, hisoblanmoq, sanalmoq* kabi so‘zlar fe’lga xos zamoni ifodalovchi grammatik shakllarni qabul qiladi va o‘tgan, hozirgi, kelasi zamon ma’nolarini anglata oladi. Masalan: *Bu hovining teng yarmi mevazor edi*. (P.Tursun) *Ahmad talaba bo‘ldi* (O‘tgan zamon); *Men besh yildan buyon bankning mijozi hisoblanaman* (kun.uz) (Hozirgi zamon); *Fikrlar o‘zingniki bo‘lsin* (Kelasi zamon). Bunda zamoni annotatsiyalash fe’l kesimlar bilan umumiy tartibda amalga oshiriladi.

Annotatsiyalashda birlikning ayni gap tarkibidagi xususiyatlari aks ettirilishi lozim. Yuqoridagi tasnif asosida zamon shakllari annotatsiyalanganda aksariyat matnlar zamoni to‘g‘ri tahlil qilinsa-da, biroq olingan xulosa har doim ham ishonchli bo‘lavermaydi. Chunki korpusda zamon shakllari nutqiy voqelangan holatda bo‘ladi va nutqda boshqa birliklar qurshovida ularning ma’nosida o‘zgarish bo‘lishi mumkin. Bu holat matndan zamoni aniqlashning grammatik darajasidan tashqarida bo‘lib, keyingi semantik va kontekstual darajalarda tekshiriladi.

Adabiyotlar:

1. Решетов В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 231 б.
2. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013. – 87 b.
3. Игамбердиева Ш. Ўтган замон феъл формаларини ўзбек адабий тили ва Фориш, Наманган шевалари билан қиёслаб ўрганиш: фил. фан. канд... дисс. – Тошкент, 1970. – 137 б.
4. Usmonov K. O‘zbek tili shevalarida fe’lning hozirgi zamon shakllari. – Qarshi, Nasaf, 2005. – 138 b.



5. Зикриллаев Ғ. Руҳ ва тил. – Тошкент: Фан, 2018. – 464 б.
6. Мусулмонова Н. Грамматик шаклларда категориал, ёндош ва ҳамроҳ маъно (замон ва майл категориялари мисолида): фил. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2007. – 112 б.
7. Хамроева Ш. Ўзбек тили морфологик анализаторининг лингвистик таъминоти: филол. фан. док. дис. – Тошкент, 2021. – 268 б.
8. www.uzschoolcorpara.uz



MUNDARIJA

TABRIK SO‘ZI

SIROJIDDINOV Shuhrat Samariddinovich – KOMPYUTER LINGVISTIKASI RIVOJI – MILLIY YUKSALISH MEZONI	4
KARIMOV Suyun Amirovich – O‘ZBEK KORPUS LINGVISTIKASINING BUGUNG TENDENSIYALARI	6

YALPI YIG‘ILISH MA‘RUZALARI

Eshref ADALI - MAKINE ÇEVİRMESİ İÇİN PARALLEL CORPUS	8
Мўратбек Бағила Қўрманбекқызы, Әмірғали Жанар Орынбасарқызы - ҚАЗІРГІ ТҮРІК ТІЛІ МЕН ҚАЗАҚ ТІЛІНЕ ОРТАҚ СӨЗДЕРДІҢ ЛЕКСИКА-СЕМАНТИКАЛЫҚ ЖҮЙЕСІ	27
РАУПОВА Лайло Раҳимовна - “ЎЗБЕК ТИЛИНИНГ ТАЪЛИМИЙ КОРПУСИНИ ЯРАТИШ” ЗАРУРАТИ ВА АМАЛГА ОШИРИЛГАН ВАЗИФАЛАР	35
Mengliyev Vaxtiyor Rajabovich - ЎЗБЕК ТИЛИНИ МАТЕМАТИК МОДЕЛЛАШТИРИШ ЎЗБЕК ТИЛШУНОСЛИГИНИНГ КЕЧИКТИРИБ БЎЛМАЙДИГАН ДОЛЗАРБ МАСАЛАСИДИР	40
Elov Botir Boltayevich - TABIIY TILNI QAYTA ISHLASH (NLP)DA SPACY MODULIDAN FOYDALANISH	47
ШАХОБИТДИНОВА Шоҳида Ҳашимовна, ХАМРОЕВА Шаҳло Мирджонова - ЎЗБЕК ТИЛИНИНГ МОРФОЛОГИК АНАЛИЗАТОРИ КОРПУС ВОСИТАСИ СИФАТИДА	67
1-sho‘ba. O‘ZBEK TILINING MILLIY KORPUSI: NATIJALAR, MUAMMOLAR, VAZIFALAR.	72



МЕНГЛИЕВ Бахтиёр Ражабович, ХАМРОЕВА Шахло Миржоновна, ГУЛЯМОВА Шахноза Кахрамоновна - ПОЛИФУНКЦИОНАЛ СЎЗЛАР ВА УЛАРНИНГ СЕМАНТИК АНАЛИЗАТОРИ ХУСУСИДА	
МЕНГЛИЕВА Мунира Бахтиёр кизи - ТУРЛИ ҚУРИЛИШЛИ ТИЛЛАРДА АСПЕКТУАЛЛИК ФУНКЦИОНАЛ-СЕМАНТИК МАЙДОНЛАРИНИНГ ТАРКИБИ	90
МЕНГЛИЕВА Мунира Бахтиёр кизи - ТУРЛИ ҚУРИЛИШЛИ ТИЛЛАРДА АСПЕКТУАЛЛИК ФУНКЦИОНАЛ-СЕМАНТИК МАЙДОНЛАРИНИНГ МАЪНО КЎЛАМИ	93
ИСЛОМОВ Икром Хушбоқович - ЛЕКСИКОГРАФИК МАҲСУЛОТЛАР ВА УЛАРДАН ТИЛ КОРПУСИДА МАЪЛУМОТЛАР БАЗАСИ СИФАТИДА ФОЙДАЛАНИШ	97
2-sho‘ba. O‘ZBEK TILINING MILLIY KORPUSINI YARATISH MASALALARI	
НИГМАТОВА Лолахон Хамидовна - ПАРАЛЛЕЛЬНЫЕ КОРПУСЫ, КАК ЭФФЕКТИВНЫЙ МЕТОД ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА	104
SALIMGEREY Zamira - COMPUTATIONAL LINGUISTICS AND ITS APPLICATIONS	110
BERDIYEVA Habiba Abdumannon qizi - O‘ZBEK TILI BIRLIKLARI STEMMIZATSIYASINING AYRIM MUAMMOLARI	115
NIZOMOVA Zuhra Komil qizi - THE IMPORTANCE OF THE THESAURUS OF CHEMICAL TERMS	119
O‘ROZOV Jumanazar Norqizilovich - LINGVOKRIMINALISTIKA FAN SIFATIDA SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTI	125



ABDULLAYEVA Oqila Xolmo‘minovna - TIL KORPUSLARIDA LINGVISTIK ANNOTATSIYA VA UNING PRINSIPLARI	131
---	-----

**3-sho‘ba. TABIIY TILGA AVTOMATIK ISHLOV BERISH
MUAMMOLARI**

ABDURAHMANOVA Muqaddas Tursunaliyevna, OLIMOVA Muxlisa Parmonovna - TEZAURUSDAGI O‘ZARO BOG‘LANISHLAR	138
ALIMOVA E'zoza, KHAMDAMOVA Shaxina - CREATION OF A NATIONAL SYSTEM FOR ASSESSING THE QUALITY OF EDUCATION IN SECONDARY SCHOOLS	143
AXMEDOVA Dildora Baxodirovna, ESHQULOVA G. - TIL BIRLIKLARINI SEMANTIK TEGGLASHDA SEMEMA MASALASI	148
АЛЛАМБЕРГЕНОВА Муқаддас Руслановна - ЎРХУН-ЭНАСОЙ ОБИДАЛАРИНИ МОБИЛ ТАДҚИҚ ҚИЛИШ	154
BADRIDDINOVA Umida Yaxyoyevna - ONA TILI TA'LIMIDA O'QIB TUSHUNISHGA OID LINGVODIDAKTIK VOSITALAR XUSUSIDA	160
BESHIMOVA Mohichehra - YURIDIK HUJJATLARDAGI AYRIM TERMINLAR USLUBIYATI .	166
HASANOVA Gulbahor G'ayratovna - “SAB'AI SAYYOR” DOSTONINI O‘QITISHDA O‘QUV LUG‘ATLARIDAN FOYDALANISH	170
KAHAROVA Iroda Sidikovna, MINOSIDINOV Sherzodbek Nahromjonovich - O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA MODAL SO‘ZLAR	176
JABBOROVA Sevara Baxtiyor qizi - BADIY ASARLARNI	182



O‘RGANISHDA LUG‘ATLARDAN FOYDALANISHNING LINGVISTIK ASOSLARI	
JO‘RAYEV Nabi Narziyevich - BADIY MATNLARNI LINGVOMADANIY TAHLIL QILISHDA MILLIY TIL KORPUSINING AHAMIYATI	186
MIRVALIYEVA Dildora Anvarovna - KORPUS VA UNING TA‘LIMIY KORPUSNING AHAMIYATI	191
MUSULMANOVA Nargiza - O‘ZBEK TILINI O‘RGANISHDA TA‘LIMIY KORPUS TARKIBIDA AYRIM O‘QUV LUG‘ATLARINING O‘RNI	198
SHUKUROV Otabek Ulashevich - LEKSIKANING DINAMIK JARAYONLARIDA O‘ZLASHMA SO‘ZLARNING O‘RNI	201
QARSHIYEV Abduvali Berkinovich, KARIMOV Suyun Amirovich, Tursunov Muhammadsolih Sa‘din o‘g‘li - UZBEKCORPORA.UZ: MATNLARNI RAZMETKALASH DASTURLARI	206
ZARIPOV Rafiqjon Ergashboy o‘g‘li - O‘ZBEK TILI KORPUSINI SHAKLLANTIRISHNING HUQUQIY ME‘YORLARI	213
RAJABOV Elshod Erkinovich, QIYOMOVA Nigora Bahodir qizi - O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA “OILA” ASSOTSIATIV-SEMANTIK MAYDONINING TUZILISHI	218
SHAMSUDINOVA Iqbol Baxovadinovna - O‘ZBEK MILLIY KORPUSIDA KO‘MAKCHI VA KELISHIKLARNING LEKSIK-GRAMMATIK VALENTLIK ASPEKTI	224
XOLMUXAMEDOV Baxtiyor - KORPUSGA KIRITILGAN KAVSAR SURASI TADQIQI	229



4-sho‘ba. O‘ZBEK TILINING FORMAL GRAMMATIKASINI YARATISH MUAMMOLARI

TOG‘AYEVA Dilnoza - MORFEMALARNING FONETIK XUSUSIYATLARI (KELISHIK QO‘SHIMCHALARI MISOLIDA)	235
TO‘RAYEVA Dildora Anvarovna, BURXONOV Javodbek Azimjonovich - ANONIM SHAXSIY YOZISHMALAR EKSPERTIZASI	243
XOLMURATOVA Gulnoza Komiljon qizi - KORPUS ASOSIDA BAJARILADIGAN MASHQ VA TOPSHIRIQLAR TIZIMI	250
XONNAZAROV Elyor G‘ofurovich - ZAMONLAR ANNOTATSIYASIDA GRAMMATIK SHAKLLARNING AHAMIYATI	256
XURRAMOVA Zarnigor Jo‘raqulovna - LEKSIKOGRAFIK MANBALARDA QISQARTMALARNING AMALIY AHAMIYATI	265
YAKUBOVA Dilafruz Tog‘oymurod qizi, QULTO‘RAYEVA Sarvinoz Bahodir qizi, UMURQULOV Bekpo‘lat Normurodovich - LINGVISTIK KORPUSDA MA‘LUMOTLARNI RASMIYLASHTIRISH	268
АВЕЗОВ Сухроб Собирович - О КОРПУСНОЙ ЛИНГВИСТИКЕ, ТРУДНОСТЯХ ПЕРЕВОДА И ПРИНЦИПАХ ОРГАНИЗАЦИИ ПАРАЛЛЕЛЬНЫХ КОРПУСОВ ТЕКСТОВ	275
НОРҚЎЗИЕВ Жамшид - ЎЗБЕК ТИЛИ ХРОНОНИМЛАРЛУФАТИНИ МИЛЛИЙ ТИЛ КОРПУСИГА МОСЛАШНИНГ ЛЕКСИКОГРАФИК ХУСУСИЯТЛАРИ	281
ЖЎРАЕВА Нилуфар Шухрат кизи, ШАРОПОВА Сафия Бегмат кизи - ПАРАЛЛЕЛ КОРПУС ТУЗИШ МУАММОЛАРИ	286



ТУРДИБЕКОВ Мўмин - ТОПОНИМИКАНИНГ ШАКЛЛАНИШИ ВА РИВОЖЛАНИШИ	293
РАХИМОВА С.Ж. - ИБОРАЛАРДА КўП МАЪНОЛИЛИК ШАКЛЛАРИ	298
ҲАСАНОВ Абдуманнон Мажидович - ТИЛДАГИ БўШЛИҚЛАР ВА УЛАРНИ ТўЛДИРИШ ЗАРУРАТИ	303
СУЛТАНОВА Шахноза - О РАЗВИТИИ ГРАММАТИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ	308
НО‘ЖАМБЕРДИЙЕВА Dildora - O‘ZBEK AYOLLARI NUTQIDA QARG‘ISH SO‘ZLARINING QO‘LLANISHI	315
МўЙДИНОВ Қодиржон - ЎЗБЕК ТИЛИНИНГ МИЛЛИЙ КОРПУСИДА ЮРИДИК ТЕРМИНЛАРНИНГ БЕРИЛИШИГА ДОИР	319
ТУРДАЛИЕВА Дилфуза Солохидиновна - ПАРЕМИК БИРЛИКЛАРНИНГ ЭМОЦИОНАЛ-ЭКСПРЕССИВ ЖИҲАТЛАРИ	324
ТУРДИМУРОДОВ Сирожиддин Эшқобилевич - ЎЗБЕК ТИЛИДА ЭВФЕМИК ГРАДУОНИМИЯ	327
МУРТАЗАЕВ Аброр - МУАЛЛИФЛИК ҲУҚУҚИНИ АНИҚЛАШДА ЛИНГВИСТИК ЭКСПЕРТИЗАСИНИНГ АҲАМИЯТИ	332
ХАМИДОВА Дурдона - ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДАГИ ИҚТИСОДИЙ ТЕРМИНЛАРНИНГ ЛЕКСИКОГРАФИК ҚИЁСИ	338
MUAMMO VA ECHIMLAR	345
TANGIROVA Shaxnoza Xusniddin qizi - LEARNER IDENTITY AND LITERACY	